

Qarz olish va qarz berish haqida



11:40 / 30.12.2018 36761

Ey, farzand!

Birovga qarz berish sadaqa berishdan afzaldir. Bu haqda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday deganlar:

«Bir kishining muhojga qarz berishi sadaqa berishidan o'n sakkiz daraja afzalroqdir». Ro'za tutish va sadaqa berishni o'ziga nazr qilish xavflidir. Chunki har ikkisini bajara olmay qolish ehtimoli bor. Aks holda nazr sahibi Allohga nisbatan qarzdor sanaladi.

Ishlagan odamning haqini terisi qurimasdan, ya'ni juda tez ado etish kerak.

Qarz so'ragan kishining qiyin holini o'ylab, uni hijolat qilmaslik, ranjitmaslik kerak. Bu xususda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday deydilar:

«Qarz olib, qarz berish ishini yaxshilik bilan bajaringiz. Agar taraflardan birini ranjitsangiz, xafa qilsangiz katta gunoh orttirgan bo'lasiz!»

Qarz olgan kishi boshdan qaytarishga niyatli bo'lishi shartdir.

Uch holatda qarz olmoq uchun murojaat qilinadi:

1. Xastalik va boshqa sabablar bilan ishlab foyda topolmay qolganda, muhim ehtiyoj chiqqanda shunga yarasha olmoq.
2. Ro'zg'or, oila kamchiligini butlamoq uchun.
3. Uylanmoq uchun yetarli tayyorgarlik ko'rilmagan holda.

Bu uch holatda Alloh qulning vakili va yordamchisi bo'ladi.

Bunday kishiga Alloh yordam va'da qilgan.

Qarzdor bo'lish kishining huzurini buzadi. Ko'p qarz olmoqdan keskin tiyilish kerak. Qarzi bo'lganning rohati bo'lmaydi. Kishi qarzining xizmatkoridir.

Qarz insonni kechalar g'amli, kunduzlar g'amgin qiladi.

Qarzdor kishiga zakot berishni Alloh joiz etgan.

"Ey farzand!" kitobidan